

Ta'lim tizimiga taklif: “kurator-pedagog” lavozimiga ehtiyoj bor

5-sinfidan 11-sinfgacha hamda litsey va kollejlarni ham qamragan holda, kurator-pedagog lavozimini joriy qilishni taklif qilaman. Bunda o'qituvchi o'qituvchiligini qiladi, kurator-pedagog esa mas'uliyatni bo'yniga olgan holda, o'z sinfidagi (guruhidagi) o'quvchilarining ta'lim-tarbiyasiga, formasiga, davomatiga, yurish-turishiga javob beradi.

Bundan tashqari, kurator-pedagogga o'z sinfida (guruhida) dars o'tish uchun imkoniyat berib, unga faqat tarbiya, huquq yoki psixologiya darslarini bersak maqsadga muvofiq bo'ladi. Shundagina kurator-pedagog o'z o'quvchilari oldida o'qituvchilik metodikasini ko'rsatgan holda, hurmat qozonishni boshlaydi. Demoqchimanki, kurator-pedagog lavozimiga ko'proq universitetdagi “tarbiya va huquq” yo'nalishini yoki “psixologiya” yo'nalishini bitirganlarni olish kerak. Chunki bu yo'nalishni bitirganlar o'z o'quvchilari va ota-onalar bilan ham tarbiyaviy, ham huquqiy, kerak bo'lsa psixologik tomondan muomala bilan yondashadi va kerakli ko'rsatmalar bera oladi.

Endi shu fikrimni, ya'ni kurator-pedagogning vazifasini misollar tariqasida tushuntirib o'taman. Biz bilamizki, o'quv binolarida dars soat 8:00da boshlanadi. Kurator-pedagog esa 7:30da o'quv binosida bo'lib, o'z guruhidagi o'quvchilarning formasini, davomatini tekshirishdan boshlaydi va soat 8:00da dars boshlanishi bilan o'z o'quvchilari bilan birgalikda darsga kiradi. Endi kurator-pedagog orqa partada o'tirgan holda, har bir dars jarayonini o'z o'quvchilari bilan birga o'tkazadi. Endi kurator-pedagog nafaqat o'z o'quvchilarini nazorat qiladi, balki dars o'tayotgan har bir fan o'qituvchisini o'qituvchisini ham nazorat qilib boradi, ya'ni yordamchi o'qituvchiga aylanadi, desak ham mubolag'a bo'lmaydi. **Qisqasi “jonli kamera”ga aylanadi!**

Agar shu jarayonni tashkillashtirsak, biz nafaqat o'quvchining bilim sifati, tarbiyasi va davomatini oshirgan bo'lamiz, balki har bir fan o'qituvchisining darsga mas'uliyat bilan kirishini ta'minlaymiz. Bir tarafdin baholash tizimida ko'zbo'yamachilik, poraxo'rlikning ham oldi olinadi. Chunki kurator-pedagogning har bir darsni kuzatib borishi, baholash tizimining halollik bilan olib borilishini ta'minlaydi. Beayb parvardigor, issiq jonmiz, ayrim bir sabablar tufayli o'qituvchi darsga kelmay qolishi mumkin. Shunda kurator-pedagog yordamchi o'qituvchiga aylanib, o'z sinfidagi darsni o'z nazoratiga oladi. Kurator-pedagogning vazifasi faqat dars paytida o'quvchilarini nazorat qilish bilan cheklanib qolmaydi, balki o'quvchilarining darsdan so'ng nima bilan shug'ullanishini, ayrim sabablarga ko'ra nimaga darsga kelmaganligini, bilim saviyasi yaxshi-yomonligini, uning tarbiya jarayoni qanday kechayotganligini uyiga borib ota-onasi bilan birgalikda muhokama qiladi.

Kurator-pedagoglarning oylik ish haqini o'qituvchining oylik ish haqi bilan tenglashtirsak, bu ham adolatdan bo'ladi. Chunki kurator-pedagog juda katta mas'uliyatni o'z bo'yniga olishini biz unutmaylik! To'g'ri, byudjetdan biz ozmi-ko'pmi yutqazamiz, lekin ma'rifat, ma'naviyat, ta'lim-tarbiya borasida birinchi o'ringa chiqib olamiz! Ha-ha, ishoning, birinchi o'ringa!!!

Yana bir bor ta'kidlayman, kurator-pedagog lavozimini har bitta sinfga yoki kollej-litseyda har bitta guruhga tayinlash kerak, ya'ni kurator-pedagog o'z sinfiga (guruhiga) javob beradi, o'qituvchi esa o'z darsiga javob beradi. Ishoning, agar biz shu ishni qiladigan bo'lsak, ta'lim-tarbiya sifati ham yaxshi tomonga o'zgarishni boshlaydi.

Bu taklifim savol tug'dirishi mumkin: "Bu o'quvchi va o'qituvchiga bosim o'tkazmaydimi?!" deb. Yo'q, balki mas'uliyatni oshiradi. Hattoki, rivojlangan mamlakatlar kerak bo'lsa bizdan o'rganishni boshlaydi. Axir ta'lim borasida yangilik kiritsak, buning nimasi yomon?!